

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

**2026-YIL**  
**IYUN/6-SON, IV-QISM**



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google  
Scholar

ISSN  
INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afrovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

**Kalonova Moxigul Baxritdinovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Norboyev Odil Abrayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Pardaev Umidjon Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich**, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi  
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari  
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash  
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari  
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti  
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi  
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari  
05.01.07 – Matematik modellashtirish  
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt  
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik  
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari  
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti  
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash  
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi  
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari  
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari  
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi  
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish  
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)  
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar  
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari  
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik  
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti  
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi  
08.00.02 – Makroiqtisodiyot  
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti  
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti  
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti  
08.00.06 – Ekonometrika va statistika  
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit  
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit  
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti  
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti  
08.00.11 – Marketing  
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot  
08.00.13 – Menejment  
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari  
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti  
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya  
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

## Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

EPOKSID-DIAN VA FENOLFORMALDEGID GIBRID BOG'LOVCHISI ASOSIDA YUQORI YEYILISH VA KORROZIYABARDOSH ANTIFRIKSION QOPLAMALAR YARATISH .....	10
<b>Bakirov Lutfillo Yuldoshaliyevich</b>	
O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNI BOSHQARISH VA TARTIBGA SOLISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	16
<b>Mamayusupova Dilovarxon, Maxmudaliyeva Manzuraxon, Toyirjonov Shokirjon</b>	
FRANSUZ, RUS VA O'ZBEK TILLARI SPORT TURIZMI TERMINLARINING LEKSIK-SEMANTIK VA LINGVOMADANIY TADQIQI.....	20
<b>Ma'rupova Gulnoz</b>	
МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ОЦЕНКЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ХРАНЕНИЯ ПЛОДОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	24
<b>Муратов Абдулазиз Уктамович</b>	
DIGITAL TRANSFORMATION AND EMERGING TRENDS IN INFORMATION TECHNOLOGY.....	29
<b>Daminova Barno, Esmurodova Zarnigor, Boltayev Javohir, Kuziboyeva Lobar</b>	
FRANSUZ, RUS VA O'ZBEK TILLARI SPORT TURIZMI TERMINLARINING LEKSIK-SEMANTIK VA LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI.....	34
<b>Ma'rupova Gulnoz Umarjonovna</b>	
MINTAQA IQTISODIY O'SISHIDA XIZMATLAR SOHASI TARKIBIY O'ZGARISHLARINING STATISTIK TAHLILI: XORAZM VILOYATI MISOLIDA .....	38
<b>Raximov Alisher Ibragimovich</b>	
KREDIT SKORINGIDA XULQ-ATVOR OMILLARINI BAHOLASH: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY QO'LLANILISHI .....	45
<b>BekmurodovAbbos Amiriddinovich</b>	
ECONOMETRIC INVESTIGATION OF AGRICULTURAL PRODUCTION ACTIVITIES IN KARAKALPAKSTAN REPUBLIC.....	49
<b>Makhambetova Uringul Reimbaevna</b>	
GETEROKOMPOZIT POLIMER QOPLAMALAR SIRTINING SHAKLLANISHI VA ULARNING PAXTA TOLALARI SIFATIGA TA'SIRINI TADQIQ ETISH .....	55
<b>Bakirov Lutfillo Yuldoshaliyevich</b>	
GRADIENT BOOSTING (XGBOOST) VA TEGISHLILIK FUNKSIYALARIGA TAYANGAN STATISTIK KLASSIFIKATSIYA USULINING SOLISHTIRMA BAHOLANISHI .....	62
<b>Ergasheva Ma'mura Gayratovna</b>	
QURILISH SOHASIDA KICHIK VA YIRIK BIZNES SUBYEKTLARI INTEGRATSIYASI SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	69
<b>Axmedova Nilufar Shuxratovna</b>	
LARAVEL PLATFORMASIDA NEYROTARMOQLARNI QO'LLASH ORQALI FOYDALANUVCHI XATTI-HARAKATLARINI BASHORAT QILISH VA TAVSIYA TIZIMLARINI YARATISH .....	74
<b>Jo'rayev To'xtasin, Abdusattarov Odiljon, Boymatov Mexrojiddin, Maxkamov A'zimjon, Nabijonov Abduqodir</b>	
BEHIND THE 30% TARGET: A CONCEPTUAL FRAMEWORK FOR WOMEN'S ACADEMIC LEADERSHIP IN UZBEK UNIVERSITIES .....	82
<b>Farida Nishanova</b>	
QURILISH SANOATIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH: NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLAR VA AMALIY YONDASHUVLAR .....	87
<b>Abdullayev Axror Jaxbarovich</b>	
BALIQCILIKDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING OBYEKTIV ZARURIYATI .....	92
<b>Iskandar Yunusov</b>	



TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI KREDITLASHDAGI BANK KREDIT RISKLARINI PASAYTIRISH YO'LLARI.....	98
<b>Toymuxamedov Ibrohim Rixsiboyevich</b>	
KO'P KVARTIRALI UY-JOY FONDINI BOSHQARISHDA PROFESSIONAL XIZMAT KO'RSATISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEKANIZMLARI .....	108
<b>Rahimov Qodir Ergashevich</b>	
НИЗКОУГЛЕРОДНАЯ ЭНЕРГЕТИКА КАК НАПРАВЛЕНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ МОДЕРНИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА .....	115
<b>Расулкулов Жамшидбек Акрамкулович</b>	
ERKIN IQTISODIY ZONALARNING MOHIYATI VA ULARNING PRINSIPLARI .....	124
<b>Ubaydullayev Muxammadjon, Akbarov Diyorbek</b>	



# ERKIN IQTISODIY ZONALARNING MOHIYATI VA ULARNING PRINSIPLARI

## Ubaydullayev Muxammadjon Abdusamad o'g'li

Qo'qon davlat universiteti

Geografiya va iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi

E-mail: [maubaydullayev@mail.ru](mailto:maubaydullayev@mail.ru)

ORCID: 0009-0004-9406-1927

## Akbarov Diyorbek Ashirali o'g'li

Qo'qon davlat universiteti

Iqtisodiyot yo'nalishi 2-bosqich talabasi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada erkin iqtisodiy zonalarning (EIZ) iqtisodiy mohiyati, ularning tashkil etilish zarurati va asosiy prinsiplari tadqiq etilgan. Shuningdek, O'zbekistonda erkin iqtisodiy zonalarini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, 2025–2026-yillardagi statistik ko'rsatkichlar hamda normativ-huquqiy asoslar tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida EIZlarning investitsiyalarni jalb etish, eksport hajmini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish va hududlar iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashdagi ahamiyati yoritilgan hamda ularning samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** erkin iqtisodiy zona, maxsus iqtisodiy zona, investitsiya, eksport, iqtisodiy rivojlanish, soliq imtiyozlari, bojxona imtiyozlari, innovatsiya, hududiy rivojlanish, iqtisodiy integratsiya.

**Abstract.** This article examines the economic essence of free economic zones (FEZs), the need for their establishment, and the main principles of their functioning. It also analyzes the reforms being implemented in Uzbekistan to develop free economic zones, statistical indicators for 2025–2026, and the regulatory and legal framework. As a result of the study, the importance of FEZs in attracting investment, increasing exports, creating new jobs, and ensuring the economic development of regions was highlighted, and scientific conclusions were developed on increasing their effectiveness.

**Keywords:** free economic zone, special economic zone, investment, export, economic development, tax incentives, customs privileges, innovation, regional development, economic integration.

**Аннотация.** В данной статье исследованы экономическая сущность свободных экономических зон (СЭЗ), необходимость их создания и основные принципы функционирования. Также проанализированы проводимые в Узбекистане реформы по развитию свободных экономических зон, статистические показатели за 2025–2026 годы и нормативно-правовая база. В результате исследования раскрыта роль СЭЗ в привлечении инвестиций, увеличении объёмов экспорта, создании новых рабочих мест и обеспечении экономического развития регионов. Кроме того, разработаны научные выводы и рекомендации по повышению эффективности деятельности свободных экономических зон.

**Ключевые слова:** свободная экономическая зона, специальная экономическая зона, инвестиции, экспорт, экономическое развитие, налоговые льготы, таможенные льготы, инновации, региональное развитие, экономическая интеграция.

## KIRISH

Jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, xalqaro investitsiyalar oqimining kuchayishi hamda davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy raqobat muhitining kuchayishi sharoitida erkin iqtisodiy zonalar iqtisodiy rivojlanishning muhim institutsional vositalaridan biriga aylandi. Bugungi kunda dunyoning 140 dan ortiq mamlakatida minglab maxsus iqtisodiy zonalar faoliyat yuritib, investitsiyalarni jalb qilish, eksportni rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalarni transfer qilish va yangi ish o'rinlari yaratishga xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda ham erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish va rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatda ilk erkin iqtisodiy zona sifatida 2008-yilda "Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zonasi tashkil etildi. Keyinchalik "Angren" (2012), "Jizzax" (2013), "Urgut", "G'ijduvon", "Qo'qon", "Hazorasp" (2017) va boshqa erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilib, ular mamlakatning sanoat salohiyatini oshirishga xizmat qildi.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 17-fevraldagi O'RB–604-son "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi



Qonuni maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etish, boshqarish va rivojlantirishning huquqiy asoslarini belgilab berdi [2]. Mazkur qonunga muvofiq, maxsus iqtisodiy zona — cheklangan hududga ega bo'lgan va investitsiyalarni jalb qilish, yuqori texnologiyalarni joriy etish hamda hududlarni jadal rivojlantirish maqsadida maxsus huquqiy rejim amal qiladigan hudud hisoblanadi [2].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 4-martdagi PF-41-son "Maxsus iqtisodiy va sanoat zonalari faoliyatining samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonida maxsus iqtisodiy zonalarni rivojlantirish bo'yicha yangi maqsadli ko'rsatkichlar belgilandi [3]. Unga ko'ra, 2025-yilda maxsus iqtisodiy zonalarda 2,3 milliard AQSh dollari miqdorida investitsiyalar o'zlashtirish, eksport hajmini 1 milliard AQSh dollariga yetkazish, ishlab chiqarish hajmini 4,3 milliard AQSh dollariga oshirish va 12 ming ta yangi doimiy ish o'rni yaratish vazifalari belgilangan [3].

2026-yil 1-aprel holatiga ko'ra, O'zbekistonda 33 ta maxsus iqtisodiy zona faoliyat yuritmoqda. Ularda 1116 ta korxonalar faoliyat olib borayotgan bo'lib, 55,9 mingdan ortiq aholi doimiy ish bilan ta'minlangan. 2026-yilning yanvar–mart oylarida mazkur zonalarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 14 trillion so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 31,4 foizga oshgan. Shu davrda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 2,6 trillion so'mga yetgan [9; 10].

Erkin iqtisodiy zonalarning samarali faoliyat yuritishi ularning ma'lum prinsiplar asosida tashkil etilishiga bog'liq. Xususan, qonuniylik, investitsiyalarni rag'batlantirish, eksportga yo'naltirilganlik, innovatsion rivojlanish, hududiy muvozanat, raqobatbardoshlik va shaffof boshqaruv prinsiplari EIZlar faoliyatining asosiy negizini tashkil etadi.

Shu sababli erkin iqtisodiy zonalarning mohiyatini chuqur o'rganish, ularning asosiy prinsiplarini ilmiy jihatdan asoslash hamda O'zbekiston amaliyotida qo'llanilish xususiyatlarini tahlil qilish bugungi kunda dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Erkin iqtisodiy zonalalar (EIZ) iqtisodiy rivojlanishning muhim institutsional vositasi sifatida iqtisodchi olimlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan keng o'rganib kelinmoqda. Mazkur yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlar EIZlarning investitsiya muhitini yaxshilash, eksport salohiyatini oshirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini yoritishga qaratilgan.

UNCTAD ekspertlari maxsus iqtisodiy zonalarni iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi, investitsiyalarni jalb qiluvchi va sanoat ishlab chiqarishini rivojlantiruvchi hududlar sifatida tavsiflaydi. Tashkilot ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha 5400 dan ortiq maxsus iqtisodiy zona faoliyat yuritadi va ular global investitsiyalar oqimining muhim qismini shakllantiradi.

Jahon banki eksperti Douglas Zhuhua Zeng tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda EIZlarning muvaffaqiyati geografik joylashuv, samarali boshqaruv tizimi, rivojlangan infratuzilma va investitsiya muhiti bilan bog'liqligi asoslab berilgan. Muallifning fikriga ko'ra, zamonaviy EIZlar nafaqat ishlab chiqarish markazlari, balki innovatsion rivojlanish va texnologiyalar transferining muhim platformasi hisoblanadi.

Alansary va Al-Ansari (2023) tomonidan amalga oshirilgan tizimli adabiyotlar sharhida EIZ tushunchasining uchta asosiy elementi ajratib ko'rsatilgan: geografik chegaralangan hudud, maxsus huquqiy rejim va investitsiya faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi infratuzilma.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan ham EIZlar faoliyatining samaradorligi bo'yicha qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, O'zbekiston iqtisodiyotida maxsus iqtisodiy zonalarning sanoat ishlab chiqarishi, eksport hajmi va xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'siri o'rganilgan. Tadqiqotlar natijasida EIZlar hududiy rivojlanishni jadallashtirish, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish va yangi ish o'rinlarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etishi asoslangan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning qiyosiy tahlil, statistik tahlil, tizimli yondashuv, iqtisodiy-mantiqiy tahlil hamda umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Qiyosiy tahlil yordamida O'zbekiston, Xitoy, Janubiy Koreya va Birlashgan Arab Amirliklaridagi erkin iqtisodiy zonalar faoliyati taqqoslandi.

Statistik tahlil usuli asosida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda Milliy statistika qo'mitasining 2025–2026-yillardagi ma'lumotlari o'rganildi.

Tizimli yondashuv asosida EIZlarning iqtisodiy mohiyati, asosiy prinsiplari va iqtisodiyotga ta'siri kompleks ravishda tahlil qilindi.

Tadqiqotning axborot bazasini normativ-huquqiy hujjatlar, rasmiy statistik ma'lumotlar, xalqaro tashkilotlar



hisobotlari hamda mavzuga oid ilmiy manbalar tashkil etdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda erkin iqtisodiy zonalar investitsiyalarni jalb etishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. 2026-yil 1-aprel holatiga ko'ra, O'zbekistonda 33 ta maxsus iqtisodiy zona faoliyat yuritmoqda. Ushbu zonalarda 1116 ta korxonalar faoliyat olib borib, 55,9 mingdan ortiq ish o'rni yaratilgan.

### 1-jadval

#### O'zbekistonda maxsus iqtisodiy zonalarning asosiy ko'rsatkichlari (2025-yil)<sup>1</sup>

Ko'rsatkichlar	Miqdori
Maxsus iqtisodiy zonalar soni	33 ta
Korxonalar soni	1116 ta
Band aholi soni	55,9 ming kishi
2026-yil yanvar–mart oylarida ishlab chiqarish hajmi	14 trln so'm
O'sish sur'ati	31,4 %
Investitsiyalar hajmi	2,6 trln so'm

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, erkin iqtisodiy zonalarning asosiy iqtisodiy samarasi quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

Birinchiidan, xorijiy investitsiyalar hajmi ortadi. Investorlar uchun yaratilgan soliq va bojxona imtiyozlari investitsiya jozibadorligini oshiradi.

Ikkinchiidan, eksport hajmi kengayadi. 2025-yilda maxsus iqtisodiy zonalar eksport hajmini 1 milliard AQSh dollariga yetkazish vazifasi belgilangan.

Uchinchiidan, yangi ish o'rinlari yaratiladi. 2025-yil uchun 12 ming ta yangi ish o'rni yaratish rejalashtirilgan.

To'rtinchiidan, hududiy sanoat rivojlanadi. EIZlar hududlarda zamonaviy ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etishga xizmat qilmoqda.

Erkin iqtisodiy zonalarning asosiy prinsiplari

Qonuniylik prinsipi.

EIZlar faoliyati amaldagi qonunchilik asosida tashkil etiladi.

Investitsiyalarni rag'batlantirish prinsipi.

Investorlar uchun qulay biznes muhiti yaratiladi.

Eksportga yo'naltirilganlik prinsipi.

Mahsulotlarni tashqi bozorlarga chiqarish qo'llab-quvvatlanadi.

Innovatsion rivojlanish prinsipi.

Yuqori texnologiyalar va innovatsion loyihalar rag'batlantiriladi.

Hududiy rivojlanish prinsipi.

Hududlar iqtisodiy rivojlanishidagi nomutanosibliklarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Raqobatbardoshlik prinsipi.

Mahsulot va xizmatlarning xalqaro standartlarga mosligi ta'minlanadi.

Shaffoflik prinsipi.

Boshqaruv tizimi ochiq va samarali tashkil etiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, erkin iqtisodiy zonalar investitsiyalarni jalb qilish, eksport salohiyatini oshirish, sanoatni modernizatsiya qilish va yangi ish o'rinlari yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

2026-yil holatiga ko'ra, O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan 33 ta maxsus iqtisodiy zonada 1116 ta korxonalar va 55,9 mingdan ortiq ishchi faoliyat yuritayotgani mazkur tizimning iqtisodiy rivojlanishidagi o'rnini tasdiqlaydi.

Kelgusida EIZlar samaradorligini oshirish uchun:

- innovatsion loyihalar ulushini ko'paytirish;
- raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish;
- eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishlarni kengaytirish;

1 Manba: O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzilgan [9; 10].



- xorijiy investitsiyalar hajmini oshirish;
- logistika infratuzilmasini rivojlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 17-fevraldagi O'RQ-604-son "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi Qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. — 17.02.2020. — URL: <https://lex.uz/docs/-4737511>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 4-martdagi PF-41-son "Maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarini faoliyatining samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. — 04.03.2025. — URL: <https://lex.uz/uz/docs/-7420262>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 26-oktabrdagi PF-4853-son "Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. — 26.10.2016. — URL: <https://lex.uz/uz/docs/-3056978>
5. UNCTAD. World Investment Report 2019: Special Economic Zones. — Geneva: United Nations, 2019.
6. FIAS. Special Economic Zones: Performance, Lessons Learned, and Implications for Zone Development. — Washington, DC: World Bank Group, 2008.
7. Zeng D.Z. Building Engines for Growth and Competitiveness in China: Experience with Special Economic Zones and Industrial Clusters. — Washington, DC: World Bank, 2010.
8. Alansary M., Al-Ansari M. Defining "Free Zones": A Systematic Review of Literature // Heliyon. — 2023.
9. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatiga oid ma'lumotlar. — Toshkent, 2025–2026.
10. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Maxsus iqtisodiy zonalar bo'yicha statistik ma'lumotlar. — Toshkent, 2025–2026.
11. Ibragimov A.T. Erkin iqtisodiy zonalarining mohiyati, tasniflash mezonlari va shakllari // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. — Toshkent.

# **muhandislik**

# **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

## 2026. № 6

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)